O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA
TA’LIM MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING

# MILLIY O‘QUV DASTURI

MUSIQA MADANIYATI



unicef

Лойиҳа

## MUNDARIJA


**1 AMALIY FANLAR TAVSIFI........................................................ 3**
1.1 Amaliy fanlar integratsiyasi........................................................ 5
**2. UMUMIY O‘RTA TA’LIM BITIRUVChILARIGA AMALIY FANLAR BO‘YIChA QO‘YILADIGAN TALABLAR.................... 5**
2.1. Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi…………………. 6
2.2. O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi...................... 6
2.3. Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi.............................. 6
2.4. Amalaiy fanlar orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar................................................ 7
**3. UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISh....................................................................................... 7**
3.1 Konsepsiyasi.......................................................................... 7
3.2. Maktab bitiruvchilariga musiqa madaniyati fani bo‘yicha qo‘yiladigan talablar...................................................................... 16
3.3. Musiqa fani bo‘yicha o‘quvchilarga sinflar kesimida qo‘yiladigan talablar................................................................. 18
**4 MUSIQA MADANIYaTI FANI O‘QUV DASTURLARI................ 21**
4.1. Musiqa madaniyati, 1-sinf........................................................... 22
4.2 Musiqa madaniyati, 2-sinf........................................................... 25
4.3 Musiqa madaniyati, 3-sinf........................................................... 29
4.4 Musiqa madaniyati, 4-sinf.............................................................. 31
4.5 Musiqa madaniyati, 5-sinf.............................................................. 35
4.6 Musiqa madaniyati, 6-sinf.............................................................. 38
4.7 Musiqa madaniyati, 7-sinf.............................................................. 42


Лойиҳа

## 1. AMALIY FANLAR TAVSIFI

Amaliy fanlar blok-moduli o‘z ichiga Musiqa madaniyati, Tasviriy san’at, Chizmachilik, Texnologiya, Jismoniy tarbiya va Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi.

O‘quvchilarni ma’naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg‘unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o‘stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tadbiq etishga o‘rgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, o‘quvchilarni ma’naviy, badiiy, ahloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o‘stirishda, kasb-hunarga yo‘naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo‘lib, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish Amaliy fanlar tarkibida olib boriladi.

Yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma’lumotlar oqimining o‘sib borishi hayotning barcha jabhalarida to‘rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o‘zgarmoqda. Kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta’limning integrativ yondashuvini STEAM ta’limi joriy etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta’lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan. Ilgari mehnat darslarida qizlar faqat fartuk tikishni, o‘g‘il bolalar yog‘ochga va metalga ishlov berishni, tasviriy san’at va chizmachilik darslarida rasm va chizmalar qalam bilan qo‘lda chizishni o‘rganishgan bo‘lsa, hozirgi kunda buning o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Bugungi kunda butun dunyo maktab o‘quvchilarini robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, programmalashtirish, 3D-loyihalashtirish va boshqa ko‘plab yangiliklar qiziqtirmoqda.

Bunday qiziqishlarni amalda sinab ko‘rish uchun yanada murakkabroq bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash va kompetensiyalarni shakllantirish zarur bo‘ladi. Bu o‘rinda nafaqat bilish va uddalay olish balki, tadqiqot olib borish va ixtiro qilish talab etiladi.

STEAM-ta’limi DTS asosida beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatish orqali sinfdagi dars mashg‘ulotlari va maktabdan tashqari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarib ko‘rish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Musiqa madaniyati** o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni

o‘stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek, klassik va zamonaviy san’at haqidagi boshlang‘ich bilimlarni o‘zlashtirish, musiqiy asarlarni tinglab tushunish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

**Tasviriy san’at** o‘quv predmeti o‘quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, badiiy-estetik tafakkur va emotsional sezgirlikni o‘stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan bilimlarni egallashga xizmat qiladi.

**Texnologiya** o‘quv predmeti o‘quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan. O‘quv predmetini o‘qitish orqali o‘quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

**Chizmachilik** o‘quv predmeti o‘quvchilarning grafik savodxonligi, fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishga, texnik detal va buyumlarning chizmalarini o‘qish va uni tuzish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quv predmetida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

**Jismoniy tarbiya** o‘quv predmeti o‘quvchilarni jismonan sog‘lom baquvvat, vatanga sadoqatli bo‘lish ruhida tarbiyalash orqali jismoniy sifat: kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik hamda egiluvchanlik malakalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning salomatligini saqlash, ularning jismonan yetuk bo‘lib yetishishi uchun shart-sharoitlar yaratish va mashg‘ulotlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik** o‘quv predmetini o‘qitishda o‘quvchilarga harbiy qasamyod, harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalar, shuningdek, harbiy chiniqish, ruhan bardam bo‘lish, fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

## 1.1. AMALIY FANLAR INTEGRATSIYASI

Amaliy fanlar blokidagi fanlari o‘zaro ona tili va adabiyot, matematika, biologiya, fizika, geografiya va boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitiladi. Dars jarayonida quyidagi fan yo‘nalishlari bilan o‘zaro aloqalar amalga oshiriladi:

**Ona tili va adabiyot** darslaridan so‘z boyligi boyitiladi, she’rlarni badiiy-ifodali o‘qish va yod olish ko‘nikmalari shakllantiriladi, og‘zaki va yozma nutq atamalari qo‘llaniladi;

**Tarix** darslaridan milliy an’analar, urf-odatlar, o‘zbek va jahon san’ati va madaniyatini kelib chiqish va rivojlanish tarixi bilan tanishadilar;

**Matematika** darslaridan turli matematik o‘lchovlar asosida notalarni, pauzalarni cho‘zimini hisob-kitoblarida, musiqiy o‘lchovlar (2/4,3/4, 4/4 va boshqalar)ni qo‘llashda hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalanadilar;

**Geometriya** darslaridan gorizontal va vertikal chiziqlarni nota yo‘lida qo‘llashni o‘rganadilar;

**Fizika** darslaridan ovoz tembri, kuchi va ovoz chastotalari va diapozonlarni hosil bo‘lish qonuniyatlaridan foydalanadilar;

**Biologiya** darslaridan inson organizimining tuzilishi, qon tomir tizimi, og‘iz bo‘shliqlari va nafas yo‘llarini faoliyatini o‘rganadilar;

**Geografiya** darslarida mamlakatlarning geografik joylashuvi iqtisodiyotda va madaniy rivojlanishida tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlardan foydalanadilar.

**Informatika** darslarida o‘rganilgan turli grafik dasturlarga innovatsion yondashgan holda, nota va ovoz muharririning turli dasturlaridan foydalanishni, boshqarish asoslarini, diagramma tuzishni o‘rganadilar.

Лойиҳа

## 2. UMUMIY O‘RTA TA’LIM BITIRUVChILARIGA AMALIY FANLAR BO‘YICHA QO‘YILADIGAN TALABLAR

### 2.1. Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi

go‘zallik va san’atni idrok etadi;

mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlaydi;

yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritadi;

ijodiy faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholay oladi va o‘z mehnatidan zavqlana oladi;

muammolar yechimiga muqobil yondashadi va to‘g‘ri qaror qabul qila oladi;

mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik hamda ishchanlik, faollik sifatlarini egallaydi;

konstruktiv fikrlay oladi, g‘oyalarini amaliyotga tadbiq eta oladi;

loyihalash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallaydi.

### 2.2. O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi

kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigiyena qoidalariga rioya qiladi;

jismoniy mashqlarni inson salomatligi uchun ahamiyatini biladi va qo‘llaydi;

tanish va notanish vaziyatlarda o‘zini boshqaradi;

kundalik hayotida o‘z-o‘zining xavfsizligini ta’minlaydi;

mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o‘yinlar orqali intellektini rivojlantiradi;

jismoniy sifatlarni mustaqil ravishda rivojlantiradi;

sog‘lom turmush tarziga rioya qiladi;

shikastlanishning oldini olish qoidalariga amal qiladi;

favqulodda vaziyatlar chog‘ida o‘zini muqobil boshqara oladi, zarurat bo‘lganda o‘ziga va o‘zgalarga birinchi yordam ko‘rsata oladi.

### 2.3.Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi

amaliy ko‘nikmalarini o‘zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qila oladi;

turli chizma, sxemalarni o‘qiydi, tuzadi va kundalik hayotida qo‘llaydi;

amaliy ishlarni mantiqiy ketma-ketlikda to‘g‘ri bajaradi;

o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholab, faoliyatini oqilona rejalashtiradi;

muammoni yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanadi;

faoliyatining barqarorligi va o‘zining farovonligini ta’minlay oladi;

faoliyatini tanqidiy baholaydi, uni yaxshilash uchun o‘z ustida ishlaydi;

o‘z faoliyatini texnik va texnologik taraqqiyot o‘zgarishlariga moslashtira oladi;

jamoada hamkorlikda ishlaydi;

Лойиҳа

kasb turi va faoliyati yo‘nalishini ongli hamda mustaqil ravishda tanlaydi;

## 2.4.Amaliy fanlar orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko‘ra, amaliy o‘quv predmetlari bloki-modulini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiya**larni shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o‘zlashtirish, mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda ijodiy loyiha ishlarini tayyorlash, yozma va og‘zaki nutqni ravon bayon etish malakalarini shakllantirish, amaliy fanlarga oid atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur.

Fanlarni o‘qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**ni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

**O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi**ni shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlar asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

**Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasi**ni shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik hislatlarini rivojlantirishdan iborat.

# 3. UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISH

## 3.1. MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISh KONSEPSIYASI

### 1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida Musiqa madaniyati fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2025 yilgacha O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi. Jumladan:

ta’lim sohasini rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim tajribasi va milliy xususiyatlarni hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

musiqa madaniyati fani davlat ta’lim standarti talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

musiqa madaniyati fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

musiqa madaniyati fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

musiqa madaniyati fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan musiqiy savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

musiqa madaniyati fanini o‘qitishda variativ o‘quv modullarini ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

o‘quvchilarda san’atni sevish, estetik madaniyatni shakllantirish, madaniy meros va milliy qadriyatlarga chuqur hurmat hissini tarbiyalash;

o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyatini tarkib toptirish.

### 2-bob. MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISHNING JORIY HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

1. O‘zbekistonda san’at, ma’naviy, estetik va badiiy an’analarni avloddan-avlodlarga yetkazish, san’at asarlarini idrok etishga o‘rgatish orqali

badiiy madaniyatni rivojlanishi, ma’naviy-intellektual salomatligini asrash, o‘quvchilarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Musiqa madaniyati fani o‘quvchilarda xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish bilan birga badiiy va estetik did sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

2. Ushbu fanni o‘qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda madaniy qadriyatlarga asoslangan ijodiy va shaxsiy fazilatlar shakllantirilishi lozim bo‘lsada, mazkur fan mazmuni va o‘qitilishida quyidagi muammolar mavjud:

musiqa madaniyati fanida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, amaliy faoliyatiga yetarlicha vaqt ajratilmayotganligi o‘quvchilarning individual ijodiy rivojlanishini susaytirmoqda;

ijodiy erkinlikni ta’minlash maqsadida amaliyotchi o‘qituvchilar tomonidan DTS asosida alternativ darsliklarni yaratilishi va ulardan tajriba sinov tarzida foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda musiqa madaniyati darslarining yillik yuklamasi 34 soatdan 17 soatga qisqarganligi, DTS talablarini to‘liq bajarilishiga to‘sqinlik qilmoqda;

aksariyat umumta’lim maktablari musiqa madaniyati fani uchun zarur bo‘lgan jixozlar va cholg‘ular bilan jixozlanmagan;

darsliklarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarda bilishga qiziqish, ishtiyoq va maylni hosil qiladigan o‘yin va mashqlar, art-texnologiyalar o‘z aksini topmagan;

o‘quvchilarni o‘zaro hamkorlikda ishlash, mazkur fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga asoslanib o‘qitish yo‘lga qo‘yilmagan;

mazkur fanni o‘qitishda ilg‘or xorijiy, jumladan, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi Osiyoning rivojlangan davlatlari tajribasi hisobga olinmagan;

o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunida tizimlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga rioya qilinmagan;

mavzularda ketma-ketlik va izchillik hisobga olinmagan;

mavzularni o‘zlashtirish shaxs rivojining kognitiv (bilish) sohasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, kreativlik, ijtimoiy-emotsional va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilmaydi;

mavzularni o‘zlashtirish uchun asosan bilimlarni tekshirishga doir test savollaridan foydalanish bilan cheklanilgan;

mazkur fanlarda o‘qitiladigan mavzular sinflar bo‘yicha tahlil qilinganda ko‘plab mavzular fanlar va mavzular aro integrallashtirilmagan;

darslikdagi o‘quv materiallari o‘quvchilarni musiqaga doir bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qilishi mumkin, biroq amaliy ko‘nikmalar, ijodiy va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni (fazilatlar) shakllantirishga imkon bermaydi;

Loyiha

darsliklarda o‘quvchilarni faollashtirishga doir savol va o‘quv topshiriqlari berilgan, biroq, refleksiv, o‘zini o‘zi rivojlantirish va baholash ta’lim texnologiyalari, badiiy-estetik tahlilga asoslangan o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatiga mos tashxis vositalaridan samarali foydalanilmagan.

mavzular izchillikda tizimlashtirilmagan va ayrim juda ilmiy atamalar qo‘llanilgan.

## 3-bob. MUSIQA MADANIYATI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

3.1. Musiqa madaniyati fanining maqsadi – o‘quvchilarda san’at, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

3.2. Musiqa madaniyati fanining vazifalari:

musiqiy xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish;

o‘zbek va jahon kompozitorlari asarlarini tinglab, idrok etishga o‘rgatish, kuy ohangini, ifoda vositalarini xis qilish;

musiqa savodiga oid nazariy bilim (kalit so‘zlar)larni bilish va amalda qo‘llash;

kuy va qo‘shiqlarni tinglash orqali tuzilishi, janr (ommaviy va professional) jihatlarini bir-biridan ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

musiqa madaniyati fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan

ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

vokal-jamoa bo‘lib kuylash malakalarini rivojlantirish: xalq og‘zaki ijodining professional janri, milliy maqom ijrochilik san’atining mahalliy uslublari haqidagi boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

musiqa madaniyati fanining ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish;

musiqa madaniyati fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta’lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko‘nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

fanning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqishdan iborat.

## 4-bob. MUSIQA MADANIYATI FANINING O‘QUV-METODIK TA’MINOTINI RIVOJLANTIRISH

4.1. Musiqa madaniyati fanining ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ЛОЙИҲА

ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an’analar uyg‘unligida musiqa madaniyati fani bo‘yicha davlat ta’lim standartini ishlab chiqish;

musiqa madaniyati fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

tayanch o‘quv rejaga muvofiq musiqa madaniyati fanining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

musiqa madaniyati fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni (darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish;

musiqa madaniyati fanining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

4.2.Musiqa madaniyati fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

o‘quv-metodik majmualar ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o‘rta ta’limning zarur hajmi berilganligi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi.

4.3. O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo‘yiladi:

*a) didaktik talablar:*

o‘quvchi tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash;

rasmlar ko‘rinishidagi illyustratsiyalar: sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo‘lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta’riflar va shu kabilar lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi lozim.

*b) ilmiy-metodik talablar:*

fan-texnikaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirishi;

o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta’minlangan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzulari o‘zbek adabiy tili qoidalariga to‘liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g‘oya va O‘zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo‘lmagan

Лойиҳа

tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan boʻlishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yoʻl qoʻyilmasligi;

*v) pedagogik-psixologik talablar:*

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan maʼlumotlar, oʻquvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shugʻullanishga boʻlgan ehtiyojlarini toʻlaqonli qondirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi;

oʻquv fani mavzularining oʻquvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, maʼlum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bogʻliqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

oʻquvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini oʻzlashtirganlik darajasi hisobga olingan boʻlishi lozim.

*g) estetik talablar:*

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli boʻlishi;

matnlar oʻquvchiga maʼlum ijobiy hissiy taʼsirlarni oʻtkazishi va oʻquv faniga qiziqish uygʻotishi;

boʻlim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi taʼminlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

*d) gigienik talablar:*

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos boʻlishi;

harflarning kattaligi va qogʻozning sifati (ogʻirligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) meʼyoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos boʻlishi lozim.

## 5-bob. MUSIQA MADANIYATI FANINING MODDIY-TEXNIK TAʼMINOTINI MUSTAHKAMLASH

Musiqa madaniyati fani moddiy-texnik bazasini mustahkamlash boʻyicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

“Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy oʻquv xonalarini barpo etish va muqaddam qurilgan oʻquv xonalarini zamonaviy maktab namunasiga moslashtirishni taʼminlash;

oʻquv xonalarini jihozlanish darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan oʻquv uskunalari (musiqiy cholgʻular, doskalar, zamonaviy xor stanoklar) bilan taʼminlash;

## 6-bob. MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISH METODOLOGIYASI

### 6.1. Musiqa madaniyati fanini o‘qitishning asosiy tamoyillari:

Musiqa madaniyati fanining aniq maqsadga qaratilganligi;

ilmiylik (har bir o‘quv-tarbiyaviy jarayon elementlarining puxta asoslanganligi, samaradorlikning amaliy faoliyat natijalari asosida baholanishi);

pedagogik va texnologik shart-sharoitning ta’minlanganligi (ko‘zda tutilgan natijaga erishishni tizimli amalga oshirish);

uzviylik, uzlyuksizlik (o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalar negizida yangi bilim, amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqich uchun asos bo‘lishiga erishish);

individual yondashuv (har bir o‘quvchining shaxsi bilan yaqindan tanishish, uning xarakteri, ehtiyojlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlarini o‘rganish va ularga tayanib ish ko‘rish);

o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning ijobiy fazilatlarga tayanish (mavjud ijobiy qobiliyat va fazilatlar negizida yangi sifatlarni rivojlantirish, salbiy illatlarni bartaraf etib borish);

o‘quv-tarbiya jarayonining dinamik xususiyatga egaligi (shakllantiriladigan qobiliyat va fazilat to‘g‘risidagi tasavvurga ega bo‘lish – tushunchani hosil qilish – bilimga ega bo‘lish – ko‘nikmaning shakllanishiga erishish – malakani hosil qilish – odatning shakllanishiga erishish – muayyan ma’naviy-axloqiy, badiiy-estetik fazilat va amaliy ko‘nikmalarning mavjud darajasi);

o‘quvchilarning yosh, pedagogik-psixologik, milliy va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish;

ta’lim va tarbiya birligi;

yaxlit yondashuv (o‘quv-tarbiya jarayoniga mas’ul sub’ektlar tomonidan ta’limiy maqsadning bir xil tushunilishi);

pedagogik hamkorlik (o‘quv-tarbiya jarayoni sub’ektlari – oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish va uni mustahkamlash).

### 6.2. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quvchilar faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi: go‘zallik va san’atni idrok etish; mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlash; yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritish; ijodiy faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholash va o‘z mehnatidan zavqlana olish; muammolar yechimiga muqobil yondashish va to‘g‘ri qoror qabul qila olish; mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik hamda ishchanlik, faollik sifatlarini shakllantirish; mantiqiy fikrlash, g‘oyalarni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Loyiha

O‘z-o‘zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi: mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o‘yinlar orqali intellektini rivojlantirish; nafas olish tizimini to‘g‘ri tashkil qilish va ovoz apparati faoliyatini to‘g‘ri qo‘yishga rioya qilish

Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi: o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, faoliyatini oqilona rejalashtirish; muammoni yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanish; faoliyatining barqarorligi va o‘zining farovonligini ta’minlay olish; faoliyatini tanqidiy baholash, uni yaxshilash uchun o‘z ustida ishlash; o‘z faloyatini texnik va texnologik taraqqiyot o‘zgarishlariga moslashtira olish; jamoada hamkorlikda ishlash; kasb turi va faoliyati yo‘nalishini ongli hamda mustaqil ravishda tanlash; amaliy ko‘nikmalarini o‘zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qilish ko‘nikmalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

**6.3. Musiqa madaniyati fani darslarini o‘tkazish jarayoni o‘qitishning ilg‘or metodikalari, maktab, oila va madaniy muassalalarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim.**

O‘quvchilar bilan oilada, darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi;

oila, sinf va maktabdagi o‘quv faoliyati natijalarini integral diagnostika qilish;

milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish, innovatsion ta’lim texnologiyalarni amalda qo‘llay bilish malakalariga ega bo‘lish;

mazkur fanlar darslarida hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish;

o‘quvchilar faoliyati natijalarini baholash, tahlil etish va prognozlash;

darslarda o‘quvchilarning individual xususiyatlari, yoshi, bilim darajasi, dunyoqarashi, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiya va ruhiy holatlarini hisobga olish;

kreativ, ilg‘or pedagogik texnologiyalari va o‘qitish metodlaridan foydalanish orqali fanning maqsadiga va o‘qitishda natijaviyligiga erishish.

**6.4. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quv dasturlari malaka talablari va ilg‘or tajribalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.**

**6.5. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha darsliklarni ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar:**

barcha paragraflarda mavzuga mos matn, illyustratsiyalar, savollar, topshiriqlar va mashqlar bo‘lishi. Ular turli tuzilish va murakkablik darajasiga ega bo‘lishi;

savollar bilimlarni rivojlantirishi, yangi mavzuni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan mavjud faoliyat tajribasiga asoslanishi;

tinglash faoliyati uchun berilgan kuy qo‘shiqlar o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga va berilayotgan mavzuga mos bo‘lishi lozim.

ЛОЙИҲА

Jamoa bo‘lib keylash faoliyati uchun tanlangan reperturar o‘quvchilarning ovoz diapazoni va ularning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish bilan birga ularda vatanparvarlik, sadoqat, do‘stlik xissiyotlarini tarbiyalashi lozim.

mustaqil bajarish uchun savollar, topshiriqlar, ijodiy, amaliy-yo‘naltirilgan topshiriqlarning taqdim etilishi;

taqdim etilgan fotosurat, rasm, va boshqa turli illyustratsiyalarga mos savol va nota topshiriqlari matnda izohlar bilan birga berilishi;

o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘rganishga qiziqtiruvchi topshiriq va savollarning (o‘quv topshiriqlari mazmuni, bajarish tartibi, kutiladigan natija) aniqligi;

matn sarlavhasi, asosiy fikrlar va tushunchalarni ajratib ko‘rsatish, asosiy axborotlarni o‘zlashtirishga metodik yordam ko‘rsatish;

har bir mavzudagi “uy vazifasi” qismiga tushuntirishlar berish;

o‘quvchilarning qo‘shimcha ma’lumot olishi uchun manbalar ro‘yhatini taqdim etish;

raqamli texnogiyalarga asoslangan elektron axborot ta’lim resurslari, darslikning elektron (mobil) ilovasini ishlab chiqish;

izohli lug‘at (glossariy) mavjud bo‘lishi lozim.

## 7-bob. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Musiqa madaniyati fani konsepsiyasini amalga oshirish tizimini tashkil etadi.

Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi quyidagi asosiy chora-tadbirlarni nazarda tutadi:

ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqot ishlarini mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar talablari darajasiga ko‘tarish;

Musiqa madaniyati fanini o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchilarning kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlari, pedagogik madaniyatini oshirish, o‘quvchilarda badiiy-estetik, ma’naviy-ahloqiy tarbiya va jismoniy komillika intilish sifatlarini tarkib toptirishni barchaning vazifasiga aylantirish;

O‘quv-tarbiya jarayonini jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodikasi asosida muntazam takomillashtirib borish;

O‘quv-tarbiya mazmunini real hayot, yoshlarning qiziqishlari va qobiliyatlari bilan bog‘lash, ta’lim va tarbiyaning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

ijodiy tadbirlari bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi qo‘shiqlar va madaniy-ma’rifiy animatsiyalar, bukletlarni yaratish;

mazkur fanni o‘qitishdagi muammolarni bartaraf etish, o‘qitishni takomillashtirish masalalarini hal qilish maqsadida mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning yetakchi olimlarini taklif etgan holda respublika va xalqaro konferensiyalar, forum va seminarlar o‘tkazish;

o‘quv-tarbiya jarayonining muntazam ilmiy-pedagogik monitoringini olib borish va bunda IT texnologiyalaridan samarali foydalanish;

ota-onalar, pedagoglar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlar kabi didaktik materiallar turkumini yaratish.

## 8-bob. YAKUNIY QOIDALAR

5.1. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha ishlab chiqiladigan me’yoriy hujjatlar mazkur konsepsiyada belgilangan qoidalarga muvofiq bo‘lishi talab etiladi.

5.2. Konsepsiyani amaliyotga joriy etish ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik bilan o‘zaro kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Лойиҳа

## 3.2. MAKTAB BITIRUVCHILARIGA MUSIQA MADANIYATI FANI BO‘YIChA QO‘YILADIGAN TALABLAR

### ESTETIK MADANIYAT VA IJODKORLIK KOMPETENSIYASI

skripka (sol) kalitini nota yo‘lidagi joylashuvini yoza oladi;
Tabiatdagi va musiqiy tovushlarni farqlaydi;
Tovushlarni ifodalashda nota yo‘lidan foydalana oladi;
Shovqinli va musiqiy tovushlarni ajratadi;
ijro (yakkanavozlik va jo‘rnavozlik) turini farqlaydi;
sozandani xonandadan farqlaydi;
kompozitorni shoirdan farqlaydi;
cholg‘u va qo‘shiq kuylarini bir-biridan farqlaydi;
ansambl turlarni farqlay oladi;
Musiqaning ifoda vositalarini bir biridan farqlaydi;
Major va minorni bir biridan farqlaydi;
Band va naqoratni bir biridan farqlaydi;
xalq raqslarini farqlaydi;
Uchtovushlik, tonika, alteratsiya belgilari, ton va yarim tonni biladi va amaliyotda qo‘llaydi;
Pauzalarning nomlanishi, vazifalari va joylashuvini biladi va amalda qo‘llaydi;
Orkestr turlarini bir biridan farqlaydi;
Musiqadagi vokal-simfonik janrlar, sahnaviy musiqa asarlarini biladi;
Balet va raqs san’ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak – tomoshalarni bir-biridan farqlaydi;
Tovushlarning kelib chiqishi va musiqiy kalitlarning turi va vazifasini biladi.
Oktavalarning tuzilishi va nomlanishi biladi;
musiqa festivallari va ko‘rik-tanlovlarni bir-biridan farqlaydi;
o‘zbek, sharq va jahon mumtoz musiqasini bir-biridan farqlaydi;
Oktavalarning tuzilishi va nomlanishi biladi;
Xalq musiqasining mahalliy uslublari va ularning ijro usullarini bir biridan farqlaydi;
maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodini bir biridan farqlaydi.

### O‘ZINI - O‘ZI RIVOJLANTIRISH VA ASRASH KOMPETENSIYASI

yetti tovush nomini biladi va ularning ketma-ketlikda kuylaydi;
turli kichik hajmdagi qo‘shiqlarni kuylayd;
psixofiziologik xususiyatlariga mos bo‘lgan qo‘shiqlarni kuylaydi;
Qo‘shiq aytish qoidalarini biladi, amal qiladi ifodali kuylaydi;
Tovushqatorni biladi va ularni yuqoriga, pastga to‘g‘ri kuylaydi;
qo‘shiq kuylashda “repriza” belgilarni to‘g‘ri qo‘llaydi;
qo‘shiqlarni tushunib, ijro etadi;

Loyiha

xalq aytimlari va qo‘shiqlarini kuylaydi;
Qo‘shiq kuylashda ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanadi;
Xor bo‘lib “a’capella”larni kuylaydi;
tinglovchilik madaniyatiga amal qiladi;
qo‘shiqlarni cholg‘u jo‘rligida birgalikda kuylaydi;
turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylay oladi;
turli dinamik belgilarida artikulyatsiya apparatini to‘g‘ri qo‘llay oladi;

## AMALIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASI

milliy (doira, nog‘ora, karnay, surnay) cholg‘ularni bir-biridan farqlaydi;
Yettita notani nota yo‘lida joylashuvini biladi va yozib ko‘rsata oladi.
Butun, yarim, chorak, nimchorak nota shakllarini farqlaydi;
notalarning bo‘linishini (butun nota, yarim nota, chorak nota va nimchorak nota) sanog‘i va cho‘zimini biladi;
2/4, 3/4, 4/4 o‘lchovlarini biladi va amalda qo‘llaydi.
Takt chizig‘ini qo‘llanish xususiyatlarini biladi musiqani diqqat bilan tinglaydi;
o‘zbek xalq cholg‘ularini biladi va ularni tinglaganda ohang tembri orqali ajratadi;
o‘rganilgan qo‘shiqlarni kuylaydi.
Notalarning cho‘zimini biladi va ularning nota yozuvida to‘g‘ri qo‘llaydi;
Sodda o‘lchovlarni dirijyorlik harakati orqali ko‘rsatadi;
Alteratsiya belgilarini nota yozuvida to‘g‘ri qo‘llaydi;
Ton va yarim tonliklarni registrda aniqlaydi;
Kichik hajmdagi mashqlarni kuylay oladi;
turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni kuylaydi;
sharq xalqlari cholg‘ularini bir-biridan farqlaydi.
Intervallarni (sof, katta va kichik) to‘g‘ri tuzadi.
Sof, katta va kichik intervallarni amalda to‘g‘ri qo‘llay oladi;
qo‘shiqlar so‘z ma’nolarini tushunib, cholg‘u asbobi jo‘rligida ifodali kuylay oladi;
kino musiqa namunalaridan tinglaganda idrok etib, fikr bildira oladi.

ЛОЙИҲА

## 3.3. MUSIQA MADANIYATI FANI BO‘YICHA O‘QUVCHILARGA SINFLAR KESIMIDA QO‘YILADIGAN TALABLAR

**Kodi** **1-sinf**

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**
skripka (sol) kalitini nota yo‘lidagi joylashuvini yoza oladi;
Tabiatdagi va musiqiy tovushlarni farqlaydi;
Tovushlarni ifodalashda nota yo‘lidan foydalana oladi;
**O‘zini -o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**
yetti tovush nomini biladi va ularning ketma-ketlikda to‘g‘ri kuylaydi;
turli kichik hajmdagi qo‘shiqlarni kuylaydi;
psixofiziologik xususiyatlariga mos bo‘lgan qo‘shiqlarni kuylaydi;
**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**
milliy (doira, nog‘ora, karnay, surnay) cholg‘ularni bir-biridan farqlaydi;
Yettita notani nota yo‘lida joylashuvini biladi va yozib ko‘rsata oladi.

**2-sinf**

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**
Shovqinli va musiqiy tovushlarni ajratadi;
ijro (yakkanavozlik va jo‘rnavozlik) turini farqlaydi;
sozandani xonandadan farqlaydi;
kompozitorni shoirdan farqlaydi;
cholg‘u va qo‘shiq kuylarini bir-biridan farqlaydi;
**O‘zini -o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**
Qo‘shiq aytish qoidalarini biladi, amal qiladi ifodali kuylaydi;
Tovushqatorni biladi va ularni yuqoriga va pastga to‘g‘ri kuylaydi.
qo‘shiq aytish qoidalariga amal qiladi;
**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**
Butun, yarim, chorak, nimchorak nota shakllarini farqlaydi.

**3-sinf**

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**
ansambl turlarni farqlay oladi;
Musiqaning ifoda vositalarini bir biridan farqlaydi.
Major va minorni bir biridan farqlaydi.
**O‘zini -o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**
qo‘shiq kuylashda “repriza” belgilarni to‘g‘ri qo‘llaydi;
qo‘shiqlarni tushunib, ijro etadi;
**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**
notalarning bo‘linishini (butun nota, yarim nota, chorak nota va nimchorak nota) sanog‘i va cho‘zimini biladi;
2/4 o‘lchovlarini biladi va amalda qo‘llaydi;
Takt chizig‘ini qo‘llanish xususiyatlarini biladi musiqani diqqat bilan tinglaydi;

**4-sinf**

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**
Band va naqoratni bir biridan farqlaydi;
xalq raqslarini farqlaydi;
Uchtovushlik, tonika, alteratsiya belgilari, ton va yarim tonni biladi va amaliyotda qo‘llaydi;

Лойиха

Pauzalarning nomlanishi, vazifalari va joylashuvini biladi va amalda qo‘llaydi;
3/4, 4/4 o‘lchovlarini biladi va amalda qo‘llaydi.

**O‘zini -o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi:**
xalq aytimlari va qo‘shiqlarini to‘g‘ri kuylay oladi.

**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**
o‘zbek xalq cholg‘ularini biladi va ularni tinglaganda ohang tembri orqali ajratadi;
o‘rganilgan qo‘shiqlarni kuylaydi.

## 5-sinf

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**
Orkestr turlarini bir biridan farqlaydi;
Musiqadagi vokal-simfonik janrlari, sahnaviy musiqa asarlarini biladi;
Balet va raqs san’ati, musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak – tomoshalarni bir-biridan farqlaydi;
Tovushlarning kelib chiqishi va musiqiy kalitlarning turi va vazifasini biladi.

**O‘zini -o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**
Qo‘shiq kuylashda ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanadi;
Xor bo‘lib “a’capella”larni kuylaydi

**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**
Notalarning cho‘zimi va ularning nota yozuvida to‘g‘ri qo‘llaydi;
Sodda o‘lchovlarni dirijyorlik harakati orqali ko‘rsatadi;
Uchtovushliklarni to‘g‘ri kuylaydi;
Alteratsiya belgilarini nota yozuvida to‘g‘ri qo‘llaydi;
Ton va yarim tonliklarni registrda aniqlaydi;

## 6-sinf

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**
Xalq musiqasining mahalliy uslublari va ularning ijro usullarini bir biridan farqlaydi;
maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodini bir biridan farqlaydi.
xalq sozandalari bilan xonandalari ijodini bir-biridan farqlaydi;
Oktavalarning tuzilishi va nomlanishi biladi;
musiqa festivallari va ko‘rik-tanlovlarni bir-biridan farqlaydi;
o‘zbek va sharq mumtoz musiqasini bir-biridan farqlaydi;

**O‘zini -o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**
tinglovchilik madaniyatiga amal qiladi;
qo‘shiqlarni cholg‘u jo‘rligida birgalikda kuylaydi.

**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**
Kichik hajmdagi mashqlarni kuylay oladi;
turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni kuylaydi;
sharq xalqlari cholg‘ularini bir-biridan farqlaydi;
Intervallarni (sof, katta va kichik) to‘g‘ri tuzadi.

## 7-sinf

**Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi:**
Musiqa turlarini biladi, o‘zbek zamonaviy,estrada musiqasi bilan mumtoz musiqani bir-biridan farqlaydi.
Televidenie va kino musiqasini biladi.
Musiqa madaniyati haqida umumiy tushuncha ega bo‘ladi

**O‘zini -o‘zi rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**
turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylay oladi;



Лойиҳа

turli dinamik belgilarida artikulyatsiya apparatini to‘g‘ri qo‘llay oladi;

**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi:**

qo‘shiqlar so‘z ma’nolarini tushunib, cholg‘u asbobi jo‘rligida ifodali kuylay oladi;

Sof, katta va kichik intervallarni amalda to‘g‘ri qo‘llay oladi;

kino musiqa namunalaridan tinglaganda idrok etib, fikr bildira oladi.

Лойиҳа

## TUSHUNTIRISH XATI

Musiqa – turli-tuman tovushlar bilan badiiy obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy-emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turi.

Insonning jamiyatda tutgan mavqeyi, madaniy, tarbiyaviy, g'oyaviy tashkilotchilik rolida musiqa yuksak o'rinda turadi. Musiqadagi obrazlarni gavdalantirib beruvchi asosiy element – musiqa tovushidir. Musiqaning asosi – kuydir. Bundan tashqari ritm, lad, metr, garmoniyalar uning muhim vositalari[1].

**Musiqa madaniyati o'quv predmetining asosiy maqsadi:**

o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, ahloqiy madaniyatini shakllantirish, musiqa tinglash, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, musiqa savodini o'rgatish, kasbga yo'naltirish va professional musiqa ijrochiligi tinglovchilarini tayyorlashdan iborat.

**Musiqa madaniyati o'quv predmetining asosiy vazifalari:**

musiqiy xotira, diqqat, tasavvur, xarakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish;

o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini tinglab, idrok etishga o'rgatish;

kuy ohangini, ifoda vositalarini xis qilish;

musiqa savodiga oid nazariy bilim (kalit so'zlar)larni bilish va amalda qo'llash;

kuy va qo'shiqlarni tinglash orqali tuzilishi, janr (ommaviy va professional) jihatlarini bir-biridan ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish;

vokal-jamoa bo'lib kuylash malakalarini rivojlantirish:

xalq og'zaki ijodining professional janri, milliy maqom ijrochilik san'atining mahalliy uslublari haqidagi boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari: musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodi faoliyat turlari bo'yicha olib boriladi.

**Musiqa tinglash** faoliyatida o'quvchilar o'zbek xalq musiqasi, o'zbek bastakorlari va jahon kompozitorlarining musiqiy asarlaridan namunalar tinglaydilar.

**Jamoa bo'lib kuylash** faoliyatida o'quvchilarning vokal-jamoa malakalari rivojlantiriladi. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz-ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini tinglaydi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

**Musiqa savodi** barcha faoliyat turlarini nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat turi (tinglash, jamoa bo'lib kuylash h.k.) qo'llanilmasin, unda o'rganilayotgan asarning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va h.k.) haqidagi yangi bilimlar beriladi.

[1] И.Акбаров "Мусиқа луғати" Тошкент. Ғофур Ғулом нашриёти 1987 йил

Лойиҳа

Musiqa savodi faqatgina nota savodidan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi (musiqa shakllari, janrlari, cholg‘uchilar ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi va boshqa) bilimlarni singdirib borishdan iboratdir.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an’analar, templar (sur’at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor haqida tushuncha beriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining musiqa madaniyati fanida berilgan qo‘shiqlar, nota materiallari o‘quvchilarning imkoniyati, ovoz diapazonlariga mos holda mantiqiy ketma-ketlikda berilgan.

O‘qituvchi ushbu dasturga kiritilmagan, ammo badiiy yuksak, tarbiyaviy jihatdan muhim va o‘quvchilar idrok-amaliyotiga mos bo‘lgan kuy va qo‘shiqlardan iborat yangi asarlardan fan uyushmasining bayonnomasiga asosan 30% o‘zgartirib, foydalanish huquqiga egadir. Shuningdek, sinflar kesimida berilgan boblar uchun ajaratilgan soat shu bob mavzularini o‘qituvchi tomonidan taqsimot qilinishi mumkin.

O‘qituvchi dars jarayoning barcha faoliyat turlarida cholg‘u asboblaridan va qo‘shimcha texnika vositalaridan foydalanib, tushuntirishi mumkin.

Ta’lim qardosh (qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg‘iz, turkman va rus) tillarda olib boriladigan maktablar uchun o‘quv dasturiga o‘zining milliy qadriyatlaridan, madaniy merosidan kelib chiqib, bastakor, kompozitor, milliy cholg‘ulari, kuy va qo‘shiqlaridan 50%gacha o‘zgartirish tavsiya etiladi.

Лойиҳа

## I SINF

## I bob. BIZ YOQTIRGAN KUY VA QO‘ShIQLAR
## (9 soat)

**Musiqa faniga kirish.** Musiqa fani va xonasi haqida suhbat. Kuylash madaniyati.

*Musiqa tinglash*. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” A.Oripov she’ri, M.Burhonov musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* Qo‘shiq aytish qoidalari. “Vatanjonim-vatanim” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullaeva musiqasi.

*Musiqa savodi:* Musiqa faniga doir o‘quv qurollari va jihozlari bilan tanishtirish.

**Tovush-nima?** Musiqiy va shovqinli tovushlar.

*Musiqa tinglash.* “Andijon polkasi” kuyini tinglab, raqsbob harakatlar bajarish.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Vatanjonim-vatanim” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Tovush haqida tushuncha.

**Topshiriq:** Tinglash uchun berilgan ovoz namunasini (musiqiy va shovqinli tovushlar) xayotiy faoliyatidagi misollar orqali topish.

“Andijon polkasi” kuyiga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish

“Vatanjonim-vatanim” qo‘shig‘ini ifodali kuylab berish

**Nota yo‘li haqida tushuncha.**

*Musiqa tinglash*: “Raqs” N.Norxo‘jaev musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Anjir” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yo‘li bilan tanishuv (vertikal chizihlar, pastki ilgaklar)

**Topshiriq:** “Raqs” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Anjir” qo‘shig‘ini ifodali kuylab berish

Nota daftariga vertikal chizihlar, pastki ilgaklarni yozish

**Biz yoqtirgan kuylar.** Cholg‘u sozida ijro etiladigan asarlar xaqida ma’lumot berish.

*Musiqa tinglash:* “Dilxiroj” o‘zbek xalq kuyini tinglab raqs elementlarini bajarish

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Kuz” N.Ro‘zimuxamedov she’ri S.Abramova musiqasi.

*Musiqa savodi:* Skripka kaliti elementlari (yarim oychalar pastki qismi)

Лойиҳа

**Topshiriq:** “Dilxiroj” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish yoki sodda raqs elementlarini bajarish.

“Kuz” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga “yarim oychalar”ni pastki qismini yozish.

**“Biz yoqtirilgan qo‘shiqlar”**

*Musiqa tinglash:* “Olmacha anor” o‘zbek xalq kuyi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Olma” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Skripka kaliti elementlari (yarim oychalar yuqori qismi)

**Topshiriq:** “Olmacha anor” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish yoki sodda raqs elementlarini bajarish.

“Olma” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga “yarim oychalar”ni yuqori qismini yozish.

**Musiqali o‘yinlar.** O‘zbek xalq o‘yinlari haqida ma’lumot berish

*Musiqa tinglash:* “Oq terakmi, ko‘k terak” X.Qayumov she’ri, A.Mansurov musiqasini tinglab, bolalar xalq o‘yiniga mos ritmik harakatlarni bajarish.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Quyonim” o‘zbek xalq o‘yini qo‘shig‘i

*Musiqa savodi:* Skripka kaliti elementlari (chig‘anoqlar va yuqori ilgaklar).

**Topshiriq:** “Oq terakmi, ko‘k terak” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish. O‘yinni darsdan tashqari faoliyatilarda o‘ynab ko‘rish.

“Quyonim” o‘zbek xalq o‘yini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga “chig‘anoqlar va yuqori ilgaklar”ni pastki qismini yozish.

## II bob. VATANIMIZNI MADH ETAMIZ (7 soat)

**Skripka (sol) kaliti.**

*Musiqa tinglash:* “Yurish marshi“ F.Nazarov musikasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Lavlagi” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Skripka (sol) kaliti, uning yozilishi, skripka kalitining nota yo‘lidagi joylashuvi.

**Topshiriq:** “Yurish marshi” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish. Kuyga mos qadam tashlashga o‘rganish.

“Lavlagi” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Skripka (sol) kalitini to‘g‘ri yozish.

**Vatanimizni madh etamiz.**

*Musiqa tinglash*: “Marsh” D.Omonullayeva musiqasi

Loyiha

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Salom bergan bolalar” P.Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

*Musiqa savodi*: Qo‘shimcha chiziq haqida ma’lumot. Nota yozuvi elementlari (1-qo‘shimcha chiziq va o‘tilgan elementlarni mustahkamlash)

**Topshiriq:** “Marsh” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish. Kuyga mos qadam tashlashga o‘rganish.

“Salom bergan bolalar” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga 1-qo‘shimcha chiziq va o‘tilgan elementlarni to‘g‘ri yozish.

**Shoir, kompozitor, xonanda va sozanda.**

*Musiqa tinglash*: “Pianino” M.Zaynitdinova she’ri, J.Najmiddinov musiqasiga yozilgan qo‘shiqni tinglash.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Alifbo bayrami” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Do$_1$, Re butun notalarining yozilishi)

**Topshiriq:** “Pianino” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Alifbo bayrami” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Do$_1$, Re butun notalarini to‘g‘ri yozish.

**Yangi yilni qutlaymiz.**

*Musiqa tinglash:* “Qari-Navo“ o‘zbek halq kuyi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Archa bayram” P.Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi

*Musiqa savodi:* Nota yozuvi elementlari (Mi butun notasining yozilishi)

**Topshiriq:** “Qari-Navo” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Archa bayram” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Mi butun notasini to‘g‘ri yozish.

## III bob. “MUSIQA SAVODIGA SAYOHAT” (9 soat)

**Fa, Sol notasi.**

*Musiqa tinglash:* “Norim-norim” o‘zbek xalq kuyi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Birinchi qor“ R.Tolib sheri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Fa, Sol butun notalarining yozilishi)

**Topshiriq:** “Norim-norim” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Birinchi qor” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Лойиҳа

Nota daftariga Fa, Sol butun notalarini to‘g‘ri yozish.

**Lya, Si notasi**.

*Musika tinglash:* “Jo‘jalar” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Kimni xati chiroyli” S.Jo‘ra she’ri, S.Xaytboyev musiqasi

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Lya, Si butun notalarining yozilishi)

**Topshiriq:** “Jo‘jalar” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Kimni xati chiroyli” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Lya, Si butun notalarini to‘g‘ri yozish.

**Tovushlarni nomlanishi va ularning ketma-ketligi.**

*Musiqa tinglash*: “Chitti gul” o‘zbek xalq kuyi. G‘.G‘ulom she’ri

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Diloromning qo‘shig‘i” P.Mo‘min she’ri. D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari ($Do_2$ butun notasining yozilishi)

**Topshiriq:** Tovushlarni nomlanishi va ularning ketma-ketligini aytib berish

“Chitti gul” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Diloromning qo‘shig‘i” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga $Do_2$ butun notasini to‘g‘ri yozish.

**Chiziqlar ustida va orasida joylashgan notalar.**

*Musiqa tinglash*: “Do‘loncha” o‘zbek xalq kuyi.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* ”Nevaralar qo‘shig‘i“ S.Barnoev she’ri. N.Norxo‘jayev musiqasi.

*Musiqa savodi:* Nota yozuvi elementlari (chiziqlar ustida va orasida joylashgan notalar)

**Topshiriq:** Chiziqlar ustida va orasida joylashgan notalarni ko‘rsatib bera oladi va nota daftariga yoza oladi.

“Do‘loncha” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Diloromning qo‘shig‘i” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga chiziqlar ustida va orasida joylashgan notalarni to‘g‘ri yozish.

**Yarim nota shakli.**

*Musiqa tinglash*: “Neopoletancha raqs” P.Chaykovskiy.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* ”Nevaralar qo‘shig‘i“ S.Barnoev she’ri. N.Norxo‘jayev musiqasi.



loyiha

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari ($Do_{1,}$ Re yarimtalik notalarning yozilishi.

**Topshiriq:** Butun nota bilan yarim notani koʻrganda farqlaydi.

“Neopoletancha raqs” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholgʻusida joʻr boʻlish.

“Nevaralar qoʻshigʻi” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga $Do_{1,}$ Re yarimtalik notalarni toʻgʻri yozish.

## IV. bob. HUSHNAVO MILLIY ChOLGʻULARIMIZ (8 soat)

**Torli cholgʻular.** Dutor va rubob cholgʻusi haqida ma’lumot.

*Musiqa tinglash*: “Dutor bayoti” oʻzbek xalq kuyi.

*Jamoa boʻlib kuylash*:

“Bugʻdoy” R.Tolib she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Fa, Sol yarimtalik notalar shaklining yozilishi.

“Nastarin” I.Jiyanoa she’ri, X.Xasanova musiqasi.

**Topshiriq:** Dutor va rubob cholgʻularini bir biridan farqlaydi

“Dutor bayoti” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholgʻusida joʻr boʻlish.

“Nastarin” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Fa, Sol yarimtalik notalarni toʻgʻri yozish.

**Damli cholgʻular.** Karnay va Surnay cholgʻusi haqida ma’lumot.

*Musiqa tinglash*: Karnay va Surnay ijrosidagi oʻzbek xalq kuyi *Jamoa boʻlib kuylash*: “Sehrli dunyo” X.Axmedova she’ri, X.Hasanova musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Lya, Si yarimtalik notalar) shaklining yozilishi.

**Topshiriq:** Karnay va Surnay cholgʻusi tuzulishi va ovoz tembridan farqlaydi va ularni nomini aytib beradi.

“Sehrli dunyo” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholgʻusida joʻr boʻlish.

“Sehrli dunyo” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Lya, Si yarimtalik notalarni toʻgʻri yozish.

**Zarbli cholgʻular.** Doira va nogʻora cholgʻusi haqida ma’lumot.

*Musiqa tinglash*: “Xorazmcha” Kayroq, nay, doyra ijrosida

*Jamoa boʻlib kuylash*: “Childirma” P.Moʻmin she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari ($Do_2$ yarimtalik notalarni yozilishi.

**Topshiriq:** Doira va nogʻora cholgʻusi tuzilishi va ovoz tembridan farqlaydi va ularni nomini aytib beradi.



Loyiha

“Xorazmcha” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Childirma” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Do$_2$ yarimtalik notasini to‘g‘ri yozish.

**Musiqa bizning hayotimizda.** Borliqni va jamiyatdagi voqea va xodisalarni musiqa orqali ifodalanishi.

*Musiqa tinglash*: “Polka” M.Glinka musiqasi

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Kapalak” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: past, o‘rta va yuqori tovushlarni farqlash (Registlarni)

**Topshiriq:** Borliqni va jamiyatdagi voqea va xodisalarni musiqaga bog‘liqligini so‘zlab bera oladi.

“To‘rg‘ay” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Kapalak” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Nazorat ishi.** (Jamoa bo‘lib kuylash faoliyat turida olib boriladi)

## MAVZUIY REJALASHTIRISH

| № | Boblar nomi | Soat |
|---|---|---|
| 1 | Biz yoqtirgan kuy va qo‘shiqlar | 9 |
| 2 | Vatanimizni madx etamiz | 7 |
| 3 | Musiqa savodiga sayohat | 9 |
| 4 | Hushnavo milliy cholg‘ularimiz | 8 |
| **Jami:** | | **33** |

## II SINF

### I bob. KUY
### (9 soat)

**Vatanimizni madh etamiz.**

*Musiqa tinglash*: “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” A.Oripov she’ri, M.Burhonov musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*:“Aziz bo‘ston O‘zbekiston” S.Mirzo she’ri. D.Omonullyeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: 1-sinfda o‘tilganlarni takrorlash. Butun nota

**Topshiriq:** Borliqni va jamiyatdagi voqea va xodisalarni musiqaga bog‘liqligini so‘zlab bera oladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” kuyini tinglaganda uni muaolliflari nomina aytib berish.

Лойиҳа

“Aziz bo‘ston O‘zbekiston” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Kuy.** Kuy haqida tushuncha.

*Musiqa tinglash*: “Mahallada duv-duv gap” kinofilmidan kuy tinglash.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Maktabim” I.Muslimov she’ri, F.Nazarov musiqasi.

*Musiqa savodi*: Yarimtalik nota.

**Topshiriq:**

“Mahallada duv-duv gap” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Maktabim” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Yarimtalik notalarni to‘g‘ri yozish.

**Chorak nota.**

*Musiqa tinglash*: “Farg‘onacha” o‘zbek xalq kuyi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Dakang xo‘roz” P.Mo‘min she’ri, A.Mansurov musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari ($Do_1$, Re chorak notalarning yozilishi.

**Topshiriq:** Chorak notani yozilishi va tuzilishini bilish, nota to‘plamlaridan uni ajratib berish

“Farg‘onacha” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Dakang xo‘roz” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga $Do_1$, Re chorak notalarni to‘g‘ri yozish.

**Milliy cholg‘ular** (g‘ijjak)

*Musiqa tinglash*: O‘zbek xalq kuyi. G‘ijjak cholg‘usi ijrosida.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “O‘ynaylik” A.Raxmat she’ri, II.Akbarov musiqasi.

*Musiqa savodi:* Nota yozuvi elementlari (Mi, Fa chorak notalarning yozilishi)

**Topshiriq:** G‘ijjak cholg‘usini tuzilishini bilish, ovoz tembrini ajratish.

“O‘ynaylik” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Mi, Fa chorak notalarni to‘g‘ri yozish.

**Milliy cholg‘ular** (tanbur, rubob)

*Musiqa tinglash*: O‘zbek xalq kuyi. Tanbur, rubob cholg‘usi ijrosida. Kuyiga mos cholg‘ular yoki chapakda ritmik jo‘r bo‘lish.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “O‘ynaylik” A.Raxmat she’ri, II.Akbarov musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Sol, Lya, Si chorak notalarning yozilishi).

**Topshiriq:** Tanbur cholg‘usini tuzilishini bilish, ovoz tembrini ajratish.

Loyiha

"O'ynaylik" qo'shig'ini cholg'u jo'rligida ifodali kuylab berish
Nota daftariga Sol, Lya, Si chorak notalarni to'g'ri yozish.

**Nimchorak nota.**

*Musiqa tinglash*: "Qari Navo" o'zbek xalq kuyi.

*Jamoa bo'lib kuylash*: "O'rdak" P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Do, Re nimchorak notalarning yozilishi)

**Topshiriq:** Nimchorak notani yozilishi va tuzilishini bilish, nota to'plamlaridan uni ajratib berish

"Qari Navo" kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg'usida jo'r bo'lish.

"O'rdak" qo'shig'ini cholg'u jo'rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Do, Re nimchorak notalarni to'g'ri yozish.

## II bob. YAKKANAVOZLIK VA JO'RNAVOZLIK (7 soat)

**Yakkanavozlik.** Yakkanavozlik haqida tushuncha.

*Musiqa tinglash*: Xorazm xalq kuyi. Doirachalarda kuyga mos ritmik jo'r bo'lish.

*Jamoa bo'lib kuylash:* "Qizaloq" T.Nazarov she'ri, N.Norxo'jaev musiqasi.

*Musiqa savodi:* Nota yozuvi elementlari (Mi, Fa nimchorak notalarning yozilishi)

**Topshiriq:** "Qizaloq" qo'shig'ini cholg'u jo'rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Mi, Fa nimchorak notalarni to'g'ri yozish.

**Qomusimsan –baxtimsan**

*Musiqa tinglash*: Yurtimizni madh etuvchi kuy qo'shiqlardan namunalar audio orqali

*Jamoa bo'lib kuylash*: "Qadim Turon" P.Tolib she'ri, N.Norxo'jayev

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Sol, Lya nimchoraktalik notalarning yozilishi.)

**Topshiriq:** "Qadim Turon" qo'shig'ini cholg'u jo'rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Sol, Lya nimchorak notalarni to'g'ri yozish.

**Jo'rnavozlik.** Jo'rnavozlik haqida tushuncha.

*Musiqa tinglash*: Yakkanavoz va jo'rnavoz ijrodagi kuy namunalarni hamda xonandalar ijrosidagi qo'shiqlarni tinglab faqlash.

*Jamoa bo'lib kuylash*: "Yomg'ir" P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

Лойиҳа

*Musiqa savodi:* Nota yozuvi elementlari ( Si, $Do_2$ nimchoraktalik notalarning yozilishi.

**Topshiriq:** “Yomg‘ir” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Si, $Do_2$ nimchorak notalarni to‘g‘ri yozish.

**Xonandalik**

*Musiqa tinglash:* Bolalar ijrosidagi qo‘shiqlardan namunalar tinglash.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Archa bayrami” A.Raxmat she’ri, I.Akbarov musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yozuvi elementlari (Re, Si, $Do_2$ nimchoraktalik notalar shaklining yozilishi.

**Topshiriq:** Jo‘rnavoz bilan xonandani farqlash.

“Archa bayrami” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Re, Si, $Do_2$ nimchorak notalarni to‘g‘ri yozish.

**Nazorat ishi №1**

## III bob. MUSIQA SAVODIGA SAYOHAT (10 soat)

**O‘lchov.** O‘lchov haqida tushuncha.

*Musiqa tinglash:* “Ot o‘yini” D.Omonullaeva

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Bog‘ ichida” X.Hasanova musiqasi, I.Jiyanov she’ri.

*Musiqa savodi*: 2/4 o‘lchovi sanalishi va yozilishi.

**Topshiriq:**

“Ot o‘yini” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Bog‘ ichida” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga 2/4 o‘lchovi to‘g‘ri yozish.

**Takt va takt chizig‘i**

*Musiqa tinglash*: “Qashqarcha” o‘zbek xalq kuyi. “Toychok”

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Navro‘zim- sho‘x sozim” H.Raxmat she’ri, N.Norxo‘jaev musiqasi.

*Musiqa savodi*: Berilgan mashqalarga takt chizig‘ini qo‘yish.

**Topshiriq:** Nimchorak notani yozilishi va tuzilishini bilish, nota to‘plamlaridan uni ajratib berish

“Qashqarcha” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Navro‘zim- sho‘x sozim” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Repriza.**

Лойиҳа

*Musiqa tinglash*: “Vals” P.Chaykovskiy musiqasi “Bolalar albomi”dan.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Uxlab turdim” I.Muslim she’ri, F.Nazarov musiqasi.

*Musiqa savodi*: repriza bilan takt chizig‘ini farqlash.

**Topshiriq:** Qaytariq belgisi bilan takt chizig‘ini bir biridan farqlash

“Vals” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Uxlab turdim” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga repriza bilan takt chizig‘ini to‘g‘ri yozish.

**Major minor**

*Musiqa tinglash*: “Teodoro marshi” J.Bize musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Zag‘izg‘on
” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Major minor haqida tushuncha

**Topshiriq:** Major va minorni bir biridan farqlash

“Teodoro marshi” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Zag‘izg‘on” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Musiqali rebuslar.**

*Musiqa tinglash*: Yugurish, S. Abramova musiqasi

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Kapalak” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: Nota yo‘lida Do-si tovushlariga rebus tuzish.

**Topshiriq:** Musiqali rebuslarni tuza olish.

“Yugurish” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Kapalak” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Do-si tovushlariga rebusni to‘g‘ri tuzish.

## IV bob. BOLALAR BASTAKORLARI
## (8 soat)

**Bastakor Shermat Yormatov.** Shermat Yormatov hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

*Musiqa tinglash*: Sh.Yormatovning bolalar uchun yozilgan qo‘shiqlarni audioda tinglash.“ Oynadik hech to‘ymadik” P.Mo‘min she’ri, Sh.Yormatov musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Sog‘lom avlod” qo‘shigi” T.Bahromov she’ri, Sh.Yormatov musiqasi.

*Musiqa savodi*: 2/4 o‘lchovidagi misol va mashqlarga takt chizig‘ini qo‘yish.

**Topshiriq:**

Лойиҳа

“Oynadik hech to‘ymadik” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Sog‘lom avlod” qo‘shigi” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Bastakor N.Norxo‘jayev.** N.Norxo‘jayev hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

*Musiqa tinglash*: “Chinni gul” P.Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Hakkalar” N.Orifjonov she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

*Musiqa savodi*: O‘lchovlardagi kuchli xissalarni aniqlash.

**Topshiriq:**

“Chinni gul” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Hakkalar” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Kompozitor Dilorom Omonullaeva.** D.Omonullaevaning hayoti va ijodi.

*Musiqa tinglash:* “Qo‘g‘irchoqlar bilan raqs” D.Omonullayeva musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Buvijon” Yu.Suyunov she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi*: nim chorak notalar ishtirokida 2/4 o‘lchoviga takt chizig‘ini qo‘yish.

**Topshiriq:**

“Qo‘g‘irchoqlar bilan raqs” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Buvijon”” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Bular kimlar ?**

*Musiqa tinglash*: “Kapalik” D.Omonellayeva musiqasi

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Xandalak” P.Mo‘min she’ri, D.Omonullayeva musiqasi

*Musiqa savodi:* Chiziqlar ustida joylashgan notalar (Mi, Sol, Si).

**Topshiriq:** Kompozitor, shoir, ijrochini va xonandani bir biridan farqlash.

“Kapalik” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Xandalak” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Mi, Sol, Si notalarni chiziqlar ustida to‘g‘ri yozish.

**Nazorat ishi**

Лойиҳа

## MAVZUIY REJALASHTIRISH

| № | Boblar nomi | Soat |
|---|---|---|
| 1 | Kuy | 9 |
| 2 | Yakkanavozlik va jo‘rnavozlik | 7 |
| 3 | Musiqa savodiga sayohat | 10 |
| 4 | Bolalar bastakorlari | 8 |
| | **Jami:** | **34** |

## III SINF

## I bob. MUSIQADA PAUZALAR
## (9 soat)

**Mustaqilligimizni kuylaymiz.**

*Musiqa tinglash*: bolalar xori ijrosidagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi”ni tinglash, A.Oripov she’ri, M. Burhonov musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” A.Oripov she’ri, M. Burhonov musiqasi.

*Musiqa savodi:* Takrorlash. O‘lchov, repriza takt chizig‘i.

**Topshiriq:** Mustaqillik so‘zining ma’nosi haqida so‘zlab berish
“O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi”ni cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**Pauzalar. Butun va yarimtalik pauzalar.**

*Musiqa tinglash:* “Oy bo‘lamiz, toy bo‘lamiz” S.Barnoev she’ri, X.Rahimov musiqasi.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Salom maktab” E.Rahimov she’ri, J.Najmiddinov musiqasi.

*Musiqa savodi:* Nota yozuvi. Butun va yarimtalik pauzalar.

**Topshiriq:** Butun va yarimtalik pauzalar sanog‘ini bilish, nota to‘plamlaridan uni ajratib berish

“Oy bo‘lamiz, toy bo‘lamiz” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Salom maktab” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Butun va yarimtalik pauzalarni to‘g‘ri yozish.

**Chorak va nimchorak pauzalar.**

*Musiqa tinglash:* “Dilxiroj” o‘zbek xalq kuyi. “Dilxiroj” kuyiga mos raqs elementlarini bajarish.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “ Kimning xati chiroylik” S.Jo‘ra she’ri, S.Xaytboev musiqasi

*Musiqa savodi:* Nota yozuvi. Chorak va nimchorak pauzalarining yozilishi.

**Topshiriq:** Chorak va nimchorak pauzalarni yozilishi va tuzilishini bilish, nota toʻplamlaridan uni ajratib berish

“Dilxiroj” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholgʻusida joʻr boʻlish.

“Kimning xati chiroylik” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga Chorak va nimchorak pauzalarini toʻgʻri yozish.

**3/4 oʻlchovi. 3**/4 oʻlchovi haqida tushuncha.

*Musiqa tinglash:* Marsh R.Shuman musiqasi

*Jamoa boʻlib kuylash:* “Uzum” P.Moʻmin she’ri,D.Omonullayeva musiqasi.

*Musiqa savodi:* 3/4 oʻlchovida mashqlar bajarish. (butun, yarim, chorak, nimchorak notalar va pauzalar bilan)

**Topshiriq:**

“Marsh” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholgʻusida joʻr boʻlish.

“Uzum” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

**4/4 oʻlchovi.** 4/4 oʻlchovi haqida tushuncha.

*Musiqa tinglash***:** Marsh D.Omonullayeva

*Jamoa boʻlib kuylash:* “Yomgʻir” N.Narxodjayev musiqasi.

*Musiqa savodi:* 4/4 oʻlchovi mashq bajarish.

**Topshiriq:**

“Marsh” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholgʻusida joʻr boʻlish.

“Yomgʻir” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga 4/4 oʻlchovi mashq bajarish.

## II bob. MUSIQA OLAMIGA SAYOHAT
## (7 soat)

**Torli cholgʻular.** Dutor va rubob cholgʻusi haqida ma’lumot.

*Musiqa tinglash:* Dutor va rubob cholgʻusida ijro etilgan xalq kuyidan namuna tinglash

*Jamoa boʻlib kuylash*: “Svetofor” Safo Ochil she’ri, S.Nurmetov musiqasi.

*Musiqa savodi:* 2/4 oʻlchovida chorak pauzalar ishtirokida mashq bajarish

**Topshiriq:** Dutor va rubob cholgʻularini tuzulishi va ovoz tembridan farqlash.

“Svetofor” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga 2/4 oʻlchovida chorak pauzalar ishtirokida mashq bajarish

**Iqbolingni kuylayman Vatan!**

*Musiqa tinglash*: Bolalar guruhlari ijrosidagi Vatan haqidagi kuy-qoʻshiqlarni audioda tinglash.

*Jamoa boʻlib kuylash*: “Diyor madhi” X.Raxmat she’ri, N.Norxoʻjayev musiqasi.

*Musiqa savodi:* 2/4 oʻlchovida yarimtalik pauzalar ishtirokidagi mashq bajarish

**Topshiriq:**

“Diyor madhi” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

**Milliy cholgʻu. Gʻijjak**

*Musiqa tinglash:* Gʻijjak cholgʻusida ijro etilgan kuy namunasidan tinglash

*Jamoa boʻlib kuylash:* “Diyor madhi” X.Raxmat she’ri, N.Norxoʻjayev musiqasi.

*Musiqa savodi:* 2/4 oʻlchovida nimchorak pauzalar ishtirokida mashq bajarish.

**Topshiriq:** Gʻijjak cholgʻusini tuzulishi va ovoz tembridan farqlash.

**Yangi yilni qutlaymiz**

*Musiqa tinglash:* “Qor” Zulfiya she’ri, Sh.Yormatov musiqasi.

*Jamoa boʻlib kuylash:* “Quvnoq bolalar qoʻshigʻi” Xurshid Qayumov she’ri, Gʻafur Qodirov musiqasi.

*Musiqa savodi:* 3/4 oʻlchovida chorak pauzalar ishtirokida mashq bajarish.

**Topshiriq:** “Qor” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholgʻusida joʻr boʻlish.

“Quvnoq bolalar qoʻshigʻi” qoʻshigʻini cholgʻu joʻrligida ifodali kuylab berish

**Nazorat ishi №1**

## III bob. ANSAMBL TURLARI
## (10 soat)

**Boʻlajak vatan himoyachilari.**

*Musiqa tinglash:* “Marsh” Leviyev. Damli cholgʻular orkestri ijrosida

*Jamoa boʻlib kuylash:* “Yosh askarlar qoʻshigʻi” S.Barnoyev she’ri, Sayfi Jalil musiqasi.

*Musiqa savodi:* 3/4 oʻlchovida yarimtalik pauzalar ishtirokidagi mashq bajarish



Loyiha

**Topshiriq:** “Marsh” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“Yosh askarlar qo‘shig‘i” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga 3/4 o‘lchovi mashq bajarish.

**Ansambl. Xonandalar ansambli.**

*Musiqa tinglash:* Bolalar guruhlari ijrosidagi qo‘shiqlardan tinglash.

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “O‘zbek bek elim” M.Mirzo she’ri, D.Omonullaeva musiqasi. “Obod vatan” Sh.Yormatov musiqasi.

*Musiqa savodi:* 3/4 o‘lchovida chorak pauzalar ishtirokidagi mashq bajarish

**Topshiriq:** “Obod vatan” kuyini tinglab, unga bolalar shovqinli musiqa cholg‘usida jo‘r bo‘lish.

“O‘zbek bek elim” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga 3/4 o‘lchovi mashq bajarish.

**Cholg‘uchilar ansambli.**

*Musiqa tinglash:* Cholg‘uchilar ansambli ijrosida kuylardan tinglash. Cholg‘uchilar ansambli ijrosidagi kuyga mos ritmik harakatlar bajarish.

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Qanday yaxshi” Sh. Yormatov musiqasi.

*Musiqa savodi:* 3/4 o‘lchovida nimchorak pauzalar ishtirokidagi mashq bajarish

**Topshiriq:** Cholg‘uchilar ansambli bilan xonandalar ansamblini bir biridan farqlash

“Qanday yaxshi” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

Nota daftariga 3/4 o‘lchovida nimchorak pauzalar ishtirokida mashq bajarish.

**“Bulbulcha” bolalar ansambli haqida**

*Musiqa tinglash*: “Bulbulcha” bolalar ansambli ijrosidagi qo‘shiqlardan namuna tinglash

*Jamoa bo‘lib kuylash*: “Bugun yana 5 oldim” Sh.Yormatov musiqasi

*Musiqa savodi*: nota yozuvidagi nimchorak pauzalarni aniqlash.

**Topshiriq:**

Tinglangan qo‘shiq namunasiga bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lish

“Bugun yana 5 oldim” qo‘shig‘ini cholg‘u jo‘rligida ifodali kuylab berish

**“Tomosha” bolalar ansambli haqida**

*Musiqa tinglash*: “Do‘st yalli” Tomosha ansambli ijrosida

*Jamoa bo‘lib kuylash:* “Bolalik yorqin rang” Tomosha ansambli ijrosida

*Musiqa savodi*: O‘lchovni mustahkamlash uchun mashqlar.

